

IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARINING O‘RNI VA IQTISODIY FAOLIYATINING STATISTIK TAHLILI

Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich

Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada sanoat korxonalarining iqtisodiyotdagi o‘rni va ularning iqtisodiy faoliyatini statistik tahlil qilish jarayonidagi asosiy qiyinchiliklar tahlil qilingan. Maqolada ma’lumot yetishmovchiligi, innovatsiyalarni joriy etish darajasi, moliyaviy cheklovlar va malakali kadrlar yetishmovchiligi kabi muammolarni ko‘rsatib, ularning samarali yechimlarini taklif qilingan. Ushbu tadqiqot sanoat sektorining barqaror rivojlanishini ta’minlash va iqtisodiyotdagi rolini mustahkamlashga qaratilgan amaliy takliflarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Sanoat korxonalari, iqtisodiy faoliyat, statistik tahlil, innovatsion texnologiyalar, moliyaviy cheklovlar, malakali kadrlar, davlat qo‘llab-quvvatlovi, iqtisodiy rivojlanish, barqarorlik.

Аннотация

В данной статье анализируется роль промышленных предприятий в экономике и основные трудности процесса статистического анализа их экономической деятельности. В статье обозначены такие проблемы, как недостаток информации, уровень внедрения инноваций, финансовые ограничения и нехватка квалифицированных кадров, и предложены их эффективные решения. Данное исследование включает практические предложения, направленные на обеспечение устойчивого развития промышленного сектора и усиление его роли в экономике.

Ключевые слова: Промышленные предприятия, экономическая деятельность, статистический анализ, инновационные технологии, финансовые ограничения, квалифицированный персонал, государственная поддержка, экономическое развитие, стабильность.

Abstract

This article analyzes the role of industrial enterprises in the economy and the main difficulties in the process of statistical analysis of their economic activity. The article identifies such problems as lack of information, the level of innovation, financial constraints, and the lack of qualified personnel, and proposes effective solutions to them. This study includes practical proposals aimed at ensuring the sustainable development of the industrial sector and strengthening its role in the economy.

Keywords: Industrial enterprises, economic activity, statistical analysis, innovative technologies, financial constraints, qualified personnel, state support, economic development, stability.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotning uzluksiz rivojlanishi sanoat korxonalarining faoliyatiga bevosita bog‘liqdir. Sanoat tarmog‘i har qanday mamlakat iqtisodiyotining

tayanch sohalaridan biri hisoblanadi. U yangi texnologiyalarni joriy etish, mahsulotlar diversifikatsiyasini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Xalqaro tajribaga qaraganda, rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy muvaffaqiyatlarida sanoat korxonalarining innovatsion va texnologik taraqqiyoti hal qiluvchi rol o'ynagan. Jumladan, Germaniya, Janubiy Koreya va Xitoy kabi davlatlarning iqtisodiy kuchi sanoat sektorining ilg'or rivojlanishi va yuqori samaradorligiga asoslangan.

Global miqyosda sanoat korxonalarini iqtisodiyotning boshqa sohalari bilan o'zaro bog'liqlikda rivojlanib, bandlik darajasini oshirish, aholini sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash va iqtisodiy turg'unlikka qarshi kurashishda muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, jahon bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlashda sanoat korxonalarining samarali faoliyati yetakchi omil hisoblanadi.

O'zbekistonning zamonaviy iqtisodiy rivojlanish jarayonida ham sanoat sektori muhim o'rin tutadi. Mamlakatda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish orqali sanoatni rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. So'nggi yillarda qabul qilingan iqtisodiy islohotlar va davlat dasturlari sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, ularning eksport salohiyatini oshirish va ichki bozorda talabni qondirishga yo'naltirilgan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni¹ sanoat tarmoqlarining innovatsion rivoji, yashil texnologiyalarni joriy qilish va ekologik muvozanatni saqlash asosiy ustuvorliklardan biri sifatida belgilangan. Mazkur muammolarni yechishda sanoat korxonalarining iqtisodiy faoliyatini statistik tahlil qilish ularning samaradorligini oshirish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal qilish bo'yicha strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalar iqtisodiy salohiyatini statistik baholash bo'yicha so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar iqtisodiy samaradorlikni oshirish va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish uchun muhim nazariy va amaliy yondashuvlarni taklif qilmoqda. Ayniqsa, oxirgi yillarda o'zbek va xalqaro olimlar tomonidan ushbu mavzuga bag'ishlangan bir qator muhim ilmiy izlanishlar amalga oshirildi.

G.D. Khasanova va S.D. Bekmuratovning "Sanoat korxonalarini — iqtisodiyotni rivojlantirishning drayveri sifatida" nomli ilmiy ishida sanoat korxonalarining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni va roli keng yoritilgan.² Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining 2023-yil yanvar-avgust oylari uchun ijtimoiy-iqtisodiy holati bo'yicha hisobotida sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sanoat ishlab chiqarish indeksi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

² G.D.Khasanova, S.D.Bekmuratov. Sanoat korxonalarini iqtisodiyotni rivojlantirishning drayveri sifatida. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 May 2023 / Volume 4 Issue 5 www.openscience.uz / ISSN 2181-08421470. <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5930/5401>

M.G‘oziyev tomonidan “Statistik usullar yordamida qurilish korxonalarining moliyaviy barqarorligini baholash” mavzusida olib borilgan tadqiqotda qurilish sohasidagi korxonalar faoliyatini statistik yondashuvlar yordamida baholash usullari tahlil qilingan. Muallif korxonalar moliyaviy barqarorligini statistik ko‘rsatkichlar yordamida aniqlash va ularni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqqan.

S.Kasimovning¹ “Xususiy sektor korxonalarining iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishda statistik tahlilning o‘rni” nomli maqolasida xususiy sektor korxonalarining iqtisodiy holatini yaxshilashda statistik ma’lumotlardan foydalanish samaradorligi haqida fikr yuritilgan. Muallif iqtisodiy salohiyatni baholash uchun zamonaviy statistik dasturlar va usullardan foydalanishni tavsiya qiladi.

R.Johnson² “Korporativ moliyaviy tahlilning statistik usullaridagi yutuqlar” nomli tadqiqotda korxonalar moliyaviy ko‘rsatkichlarini baholashda sun‘iy intellekt va statistik modellashtirishning ahamiyati yoritgan. Muallif korxonalar uchun maxsus ishlab chiqilgan statistik dasturiy ta’minot vositalarini joriy etishni taklif qilgan.

Yana bir olim, H.Lee³ “Korporativ samaradorlikni baholash uchun klaster tahlili” nomli tadqiqotda klaster tahlili orqali korxonalarni guruhlash va ularning iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish usullari ishlab chiqqan. Natijalar korxonalar faoliyatini strategik boshqarishda foydalanish uchun mos ekanligi ta’kidlangan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar korxonalar iqtisodiy salohiyatini baholashda statistik yondashuvlarning dolzarbligini yana bir bor isbotlab beradi. Ular, shuningdek, korxonalar faoliyatini samarali boshqarish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

METODOLOGIYA

Korxonalar iqtisodiy salohiyatini statistik baholash mavzusida tadqiqot olib borishda quyidagi metodlardan foydalanish rejalashtirilgan. Ushbu usullar yordamida korxonalar iqtisodiy faoliyatini chuqur tahlil qilish va asosli xulosalar chiqarish imkoniyatini taqdim etadi.

Statistik tahlil usuli korxonalar faoliyatiga oid iqtisodiy ko‘rsatkichlarni to‘plash, tahlil qilish va qayta ishlashni o‘z ichiga oladi. Statistik tahlil yordamida korxonalar moliyaviy holati, ishlab chiqarish hajmi va samaradorligi kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi. Ushbu metod natijasida korxonalar faoliyatidagi ijobiy va salbiy tendensiyalar aniqlanadi hamda ularni bartaraf etish uchun takliflar ishlab chiqiladi.

Regressiya tahlili orqali korxonaning iqtisodiy ko‘rsatkichlariga ta’sir qiluvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlanadi. Ushbu metod yordamida korxonaning moliyaviy natijalari va resurslardan foydalanish samaradorligi o‘rtasidagi munosabat o‘rganiladi. Natijada, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydali bo‘ladigan ishonchli modellarning yaratilishi ta’minlanadi.

Klaster tahlili korxonalarni iqtisodiy xususiyatlariga ko‘ra guruhlash va ular o‘rtasidagi o‘xshashliklarni aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu usul yordamida

¹ S.Kasimov. Xususiy sektor korxonalarining iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishda statistik tahlilning o‘rni. “Statistika va iqtisodiyot” jurnali, 2023-yil, 3-son.

² R.Johnson. Advances in Statistical Methods for Corporate Financial Analysis. Journal of Financial Studies, 2023, Volume 48.

³ H.Lee. Cluster Analysis for Assessing Corporate Performance. International Journal of Statistics and Applications, 2023.

korxonalar samaradorlik darajasi bo'yicha segmentlanadi, bu esa ularga mos strategik yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Natijalar korxonalar o'rtasidagi raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi usullarni birgalikda ishlatilganda korxonalar iqtisodiy salohiyatini statistik tahlil qilishda chuqur va keng qamrovli yondashuvni ta'minlaydi. Natijalar korxonalarining iqtisodiy barqarorligini oshirish, samaradorlikni kuchaytirish va raqobatbardoshlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyotida sanoat korxonalarini muhim o'rin tutadi va ularning iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2024-yilning yanvar oyida respublika korxonalarini tomonidan 44,6 trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 116,6 foizni tashkil etdi¹.

O'zbekiston Respublikasida sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosati olib borilmoqda.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruvning rivojlanish ko'rsatkichlari baholanmoqda. Shuningdek, sanoat korxonalarini innovatsion boshqaruvini amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tahlil etilib, uning o'ziga xos xususiyatlari va mavjud muammolari aniqlanmoqda.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish hajmlarining o'sishi bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirish va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,9% ni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkichni oshirish maqsadida yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 417,1 mingtani tashkil etdi². Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 14,0 birlikni tashkil qildi.

Yuqoridagi ma'lumotlar O'zbekistonda sanoat korxonalarining iqtisodiyotdagi o'rni va ularning iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni yoritadi. Ushbu chora-tadbirlar mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Quyidagi jadvalda 2024-yil 1-yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasida

¹ www.stat.uz

² O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari. 2023-yilning yanvar-dekabr oylari. www.stat.uz

faoliyat yuritayotgan mikrofirma va kichik korxonalar soni hududlar bo'yicha keltirilgan. Umumiy hisobda mamlakat bo'yicha jami 417 080 mikrofirma va kichik korxonalar faoliyat yuritmoqda.

1-Jadval

Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan mikrofirma va kichik korxonalar soni, birlikda 2024-yil 1-yanvar holatiga¹

Hududlar	2024-yil
O'zbekiston Respublikasi	417080
Qoraqalpog'iston Respublikasi	22066
Andijon viloyati	24381
Buxoro viloyati	27594
Jizzax viloyati	16677
Qashqadaryo viloyati	27980
Navoiy viloyati	19539
Namangan viloyati	23136
Samarqand viloyati	37398
Surxondaryo viloyati	20589
Sirdaryo viloyati	11217
Toshkent viloyati	38953
Farg'ona viloyati	36238
Xorazm viloyati	23854
Toshkent shahri	87458

1. Eng yuqori ko'rsatkich: Toshkent shahrida mikrofirma va kichik korxonalar soni 87 458 tani tashkil etib, barcha hududlar orasida eng yuqori ko'rsatkichga ega. Bu holatning asosiy sababi Toshkent shahrining mamlakatning iqtisodiy markazi bo'lib, unda biznesni boshlash va rivojlantirish uchun qulay infratuzilma, yirik moliyaviy va ishlab chiqarish korxonalari mavjudligidir.

2. Keyingi yirik hududlar: Toshkent viloyati (38 953), Samarqand (37 398), va Farg'ona (36 238) viloyatlari mikrofirma va kichik korxonalar soni bo'yicha keyingi o'rinlarni egallaydi. Bu hududlar aholining zichligi, iqtisodiy faoliyatning yuqori bo'lishi, shuningdek, tarixan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanganligi bilan izohlanadi.

3. O'rtacha ko'rsatkichga ega hududlar: Qashqadaryo (27 980), Buxoro (27 594), va Andijon (24 381) viloyatlarida mikrofirma va kichik korxonalar soni o'rtacha ko'rsatkichda. Bu hududlar qishloq xo'jaligi va sanoatning rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Ammo infratuzilma va iqtisodiy faoliyatning intensivligi yuqorida qayd etilgan hududlarga nisbatan biroz pastroq.

4. Nisbatan past ko'rsatkichga ega hududlar: Xorazm (23 854), Namangan (23 136), Qoraqalpog'iston Respublikasi (22 066), Surxondaryo (20 589), Navoiy (19 539), Jizzax (16 677), va Sirdaryo (11 217) viloyatlari mikrofirma va kichik korxonalar

¹ O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari. 2023-yilning yanvar-dekabr oylari. www.stat.uz

soni bo'yicha past ko'rsatkichga ega. Bu hududlarda biznes muhitining rivojlanishi sustroq kechayotgani yoki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarga yo'naltirilgani sabab bo'lishi mumkin. Masalan, Navoiy viloyatida tog'-kon sanoati ustuvor bo'lib, kichik biznes ulushi kamroq bo'lishi tabiiy.

O'zgarishlarning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- **Hududiy ixtisoslashuv:** Har bir hududning tabiiy-iqlim sharoiti, iqtisodiy va ishlab chiqarish salohiyati turlicha bo'lgani uchun mikrofirmalar va kichik korxonalar sonida sezilarli farq kuzatiladi.

- **Aholi zichligi:** Mikrofirmalar va kichik korxonalar soni ko'pincha aholi zich joylashgan hududlarda yuqori bo'ladi. Toshkent shahar va Samarqand viloyati bunga misoldir.

- **Infratuzilma va biznes imkoniyatlari:** Toshkent shahrida rivojlangan infratuzilma va qulay sharoitlar kichik biznesning jadal rivojlanishiga zamin yaratgan. Boshqa viloyatlarda esa infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi korxonalar soniga ta'sir ko'rsatgan.

- **Davlat qo'llab-quvvatlovi:** So'nggi yillarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturlari amalga oshirilmoqda, ammo ularning hududiy ta'siri bir xil emas.

- Mazkur ma'lumotlardan kelib chiqib, mamlakatda mikrofirmalar va kichik korxonalar sonini yanada oshirish uchun hududiy rivojlanish dasturlarini takomillashtirish va infratuzilmani yaxshilash zarur. Bu tadbirlar hududlararo iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishga yordam beradi.



1-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda (2022-2023-yillarning yanvar-dekabr oylarida)¹

Qishloq xo'jaligida 2022-yilda 12 018 ta yangi korxonalar tashkil etilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 9 388 taga kamaygan. Pasayish sababi qishloq xo'jaligidagi barqarorlikka erishish, yangi korxonalar ochishga ehtiyojning kamayishi yoki davlat

¹ O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari. 2023-yilning yanvar-

dasturlarida boshqa sohalarga ko‘proq e‘tibor qaratilishi bilan izohlanishi mumkin (1-rasm).

Sanoatda 2022-yilda 16 191 ta korxonalar tashkil etilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 14 101 taga kamaygan. Sanoatdagi yangi tashkilotlar sonining pasayishi sektorning murakkabligi yoki mavjud ishlab chiqaruvchilarning kengayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Savdoda 2022-yilda 34 384 ta korxonalar tashkil etilgan bo‘lsa, 2023-yilda 33 470 taga kamaygan. Pasayish nisbatan kichik bo‘lib, savdo sohasidagi raqobat va mavjud bozorlardagi barqarorlikni aks ettiradi.


Tashish va saqlashda esa 2022-yilda 3 355 ta tashkilot ochilgan, 2023-yilda esa bu ko‘rsatkich 3 946 taga ko‘paygan. O‘shirish tashish va logistika sohasidagi rivojlanayotgan ehtiyojlar, xususan, elektron tijoratning o‘shirishi bilan izohlanadi. Axborot va aloqada 2022-yilda 2 617 ta tashkilot tashkil etilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 2 932 taga o‘sgan. Axborot texnologiyalari va raqamli transformatsiyaga bo‘lgan talabning oshishi bu sohada yangi tashkilotlar sonining ortishiga sabab bo‘lgan.

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda 2022-yilda 1 498 ta korxonalar tashkil etilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 1 458 taga kamaygan. Ushbu sektorda pasayishning sabablari, ehtimol, mavjud muassasalarning kengayishi va yangi tashkilotlarga bo‘lgan talabning qisqarishi bilan bog‘liq.

Qurilishda 2022-yilda 4 795 ta tashkilot ochilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 4 859 taga ko‘paygan. Qurilish sohasidagi o‘shirish davlat infratuzilma loyihalari va xususiy qurilish loyihalariga bo‘lgan talabning oshganini ko‘rsatadi.

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 2022-yilda 5 812 ta tashkilot ochilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 5 955 taga o‘sgan. Xizmatlar sohasidagi o‘shirish turizm va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasining rivojlanishi bilan bog‘liq.

Boshqa xizmatlarda 2022-yilda 9 507 ta tashkilot tashkil etilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 9 921 taga oshgan. Ushbu o‘shirish ijtimoiy va biznes xizmatlarga bo‘lgan talabning oshishi bilan izohlanadi.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 2018-2023-yillar davomida iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (mingta)¹

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, ko‘pgina sohalarda o‘shirish kuzatilgan, ammo qishloq xo‘jaligi va sog‘liqni saqlash kabi ayrim sohalarda pasayish mavjud. Bu tahlil iqtisodiy

¹ O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari. 2023-yilning yanvar-dekabr oylari. www.stat.uz

rivojlanishning muvozanatli bo'lishi va ayrim sohalarga nisbatan davlat qo'llab-quvvatlovini kuchaytirish zaruratini ko'rsatadi.

Yuqoridagi diagrammada 2018-2023-yillar davomida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (mingta) ko'rsatilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni bo'yicha savdo sohasi yetakchilik qilmoqda. Savdo bozorining kengligi, talabning yuqoriligi va raqobatbardoshlik ushbu sohaga tadbirkorlarning e'tiborini tortmoqda. Bu sohaga qaratilgan davlat qo'llab-quvvatlovi va aholi ehtiyojining doimiy o'sishi ushbu ko'rsatkichga ta'sir qilgan.

Xizmat ko'rsatish sohasida ham sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Turizm, ta'lim, tibbiyot va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivoji yangi firmalar tashkil etilishiga zamin yaratgan.

Xizmat ko'rsatish sektori o'zining moslashuvchanligi va tadbirkorlar uchun nisbatan past kirish to'sig'iga ega bo'lgani sababli yuqori o'sishni ko'rsatmoqda. Sanoat sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar soni muhim ahamiyatga ega bo'lib, ishlab chiqarish va texnologik innovatsiyalarning rivojlanishi bu o'sishni ta'minlagan.

Sanoatni rivojlantirish uchun amalga oshirilgan davlat dasturlari va investitsiyalar ushbu sohaga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar soni ham sezilarli darajada. Bu holat agrar sektordagi islohotlar va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash dasturlari bilan bog'liq.

Ammo bu ko'rsatkich boshqa sohalarga nisbatan pastroq bo'lib, qishloq xo'jaligidagi iqlim va bozor risklari bunda muhim omil bo'lgan.

Qurilish sohasi yangi tashkil etilgan korxonalar soni bo'yicha nisbatan pastroq o'rinda. Ushbu sohada barqaror talab mavjud bo'lsa-da, yuqori investitsiya talab qilishi va katta kapital kiritish zarurati tadbirkorlikni cheklab qo'yishi mumkin.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, savdo va xizmatlar sohalari yangi tashkil etilgan korxonalar soni bo'yicha yetakchilik qilmoqda. Bu holat aholining ehtiyojlari va iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlar bilan izohlanadi. Sanoat va qishloq xo'jaligi sohasida sezilarli darajada rivojlanish bo'lsa-da, ular xizmat ko'rsatish va savdo sohaslariga nisbatan sekinroq o'smoqda. Qurilish sohasi esa investitsiya talabining yuqoriligi sababli tadbirkorlar uchun kamroq jozibadorlik kasb etmoqda.

Mazkur ko'rsatkichlar davlat dasturlari va iqtisodiy siyosatning to'g'ri yo'naltirilganligini hamda tadbirkorlik muhitining rivojlanayotganligini aks ettiradi. Sanoat korxonalarini har qanday mamlakat iqtisodiyotining asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Ularning samarali faoliyati iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, sanoat korxonalarining iqtisodiy faoliyatini statistik tahlil qilish ularning real holatini aniqlash, mavjud muammolarni aniqlash va samarali yechimlarni ishlab chiqishda muhim vosita hisoblanadi. Biroq, bunday tahlillarni amalga oshirishda qator qiyinchiliklar (quyida keltiriladi) mavjud bo'lib, ular yechimini topish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

1. Ma'lumotlarning yetishmasligi va sifatining pastligi: Sanoat korxonalari faoliyatiga oid statistik ma'lumotlarning to'liq, aniq va tizimli ravishda mavjud emasligi tahlil jarayonini qiyinlashtiradi. Ayniqsa, kichik va mikrofirma ma'lumotlarini to'plashda qiyinchiliklar kuzatiladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun:

- sanoat korxonalari faoliyatini monitoring qilish tizimini avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy qilish;
- korxonalariga o'z iqtisodiy faoliyati haqida vaqtida va sifatli hisobot berishni ta'minlash uchun qulay sharoitlar yaratish;
- maxsus ma'lumotlar bazasini tashkil qilish va uni muntazam yangilab borish lozim;

2. Innovatsiyalarni qo'llash darajasining pastligi: Ko'plab sanoat korxonalari eskirgan texnologiyalar va ishlab chiqarish uskunalaridan foydalanadi, bu esa mahsulot sifatini pasaytiradi va raqobatbardoshlikni kamaytiradi. Ushbu muammoni hal qilish uchun:

- davlat tomonidan innovatsion texnologiyalarni xarid qilish uchun subsidiyalar va imtiyozlar berish.
- sanoat korxonalariga texnologik modernizatsiya dasturlarini amalga oshirishda ko'maklashish.
- innovatsiyalarni rivojlantirish uchun sanoat va ilmiy-tadqiqot muassasalari o'rtasida kooperatsiyani kuchaytirish kerak.

3. Moliyaviy cheklovlar: Kichik va o'rta sanoat korxonalari ko'pincha yetarli moliyaviy resurslarga ega emas. Kredit olish imkoniyatlarining cheklanganligi ham rivojlanish jarayonini susaytiradi. Ushbu muammoni hal qilish uchun:

- banklar tomonidan kichik va o'rta sanoat korxonalariga maxsus imtiyozli kredit liniyalarini taqdim etish.
- davlat-xususiy sheriklik dasturlari orqali korxonalariga investitsiya jalb qilish.
- xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikda sanoatni rivojlantirish fondlarini tashkil etish lozim.

4. Kadrlar malakasi va yetishmovchiligi: Yuqori malakali muhandislar, texnologlar va boshqa mutaxassislarining yetishmasligi sanoat korxonalarining samaradorligini pasaytiradi. Kadrlar malakasining pastligi ishlab chiqarish texnologiyalarini o'zlashtirishga to'siq bo'ladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun:

- sanoat korxonalari ehtiyojlariga mos kadrlarni tayyorlash uchun kasbiy ta'lim dasturlarini takomillashtirish.
- korxonalarda xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarini tashkil etish.
- yirik sanoat tarmoqlarida xalqaro tajribaga ega mutaxassislarni jalb qilish orqali bilim almashuvini tashkil qilish.

Yuqorida ko'rsatilgan qiyinchiliklarni bartaraf etish orqali sanoat korxonalarining iqtisodiyotdagi o'rni yanada mustahkamlanadi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalarni rag'batlantirish va malakali kadrlarni tayyorlash sanoatning jadal rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, statistik tahlillar asosida

oqilona qarorlar qabul qilish jarayonini takomillashtirish iqtisodiyot barqarorligini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat korxonalarini iqtisodiyotning barqaror o‘shirishini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ularning samaradorligini oshirish va iqtisodiyotdagi ulushini mustahkamlash uchun mavjud qiyinchiliklarni hal qilish muhim ahamiyatga ega. Maqolada keltirilgan qiyinchiliklar, jumladan, statistik ma’lumotlarning yetishmasligi, innovatsiyalarning past darajada qo‘llanilishi, moliyaviy cheklovlar va malakali kadrlar yetishmovchiligi, sanoat korxonalarining rivojlanishiga to‘siq bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Statistik tahlilni takomillashtirish borasida:

– Sanoat korxonalarining faoliyati bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yaratish va uni muntazam ravishda yangilab borish.

– Raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilishni avtomatlashtirish.

2. Innovatsion texnologiyalarni joriy etishda:

– Davlat tomonidan innovatsion texnologiyalarni xarid qilish va joriy etish uchun subsidiya va imtiyozlar berish.

– Ilmiy-tadqiqot institutlari va sanoat korxonalarini o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish.

3. Moliyaviy resurslardan foydalanishni kengaytirish borasida:

– Sanoat korxonalariga imtiyozli kredit liniyalarini taqdim etish va investitsiyalarni jalb qilish.

– Davlat-xususiy sheriklik dasturlarini kengaytirish orqali moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish.

4. Malakali kadrlarni tayyorlashda:

– Kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalarida sanoat korxonalarini ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish.

– Xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun sanoat korxonalarida maxsus dasturlar tashkil qilish.

Ushbu takliflarni amalga oshirish orqali sanoat korxonalarini faoliyatining samaradorligi oshadi, innovatsion texnologiyalar keng qo‘llaniladi va iqtisodiyotning umumiy rivojlanish sur‘atlari jadallashadi. Sanoat sektori barqaror rivojlanishi nafaqat ichki bozordagi talabni qondirish, balki eksport salohiyatini oshirish va xalqaro bozorda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasidagi korxonalar to‘g‘risida”gi 229-XII-son¹ Qonuni.

¹ <https://lex.uz/ru/docs/132222>

2. O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda “Xususiy korxonalar to‘g‘risida”gi 558-II-son Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentyabr 539-son “Aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta‘minlash hamda davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko‘rsatishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-6636282>

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-mart PQ-83-son “Davlat ishtirokidagi korxonalarini isloh qilish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-6396140>.

5. G.D. Khasanova, S.D. Bekmuratov. “Sanoat korxonalarini - iqtisodiyotni rivojlantirishning drayveri sifatida.” *Science and Education Scientific Journal* / Impact Factor 3.848 May 2023 / Volume 4 Issue 5 www.openscience.uz / ISSN 2181-0842 1470. <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5930/5401>.

6. M. G‘oziyev. “Statistik usullar yordamida qurilish korxonalarining moliyaviy barqarorligini baholash.” *Statistika va iqtisodiyot jurnali*, 2023-yil, 3-son.

7. S. Kasimov. “Xususiy sektor korxonalarining iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishda statistik tahlilning o‘rni.” *Statistika va iqtisodiyot jurnali*, 2023-yil, 3-son.

8. R. Johnson. “Advances in Statistical Methods for Corporate Financial Analysis.” *Journal of Financial Studies*, 2023, Volume 48.

9. H. Lee. “Cluster Analysis for Assessing Corporate Performance.” *International Journal of Statistics and Applications*, 2023.

10. O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari. 2023-yil yanvar-dekabr. To‘plam. www.stat.uz.

11. <https://lex.uz/ru/docs/-132219?otherlang=1>.

12. <https://lex.uz/docs/-53877?ONDATE=01.01.2017%2010>.

13. <https://www.lex.uz/ru/docs/-6212581?ONDATE=22.11.2023>.

14. <https://lex.uz/docs/-6396140>.

15. www.stat.uz.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**